



BADIIY ASARLARDA SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

Tojiboyeva Zuhra Alisher qizi,
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘quvchisi
Xaitov Xusniddin Xasanovich,
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Sevgi qissalari” asarlaridagi yasama so‘zlarga xos jihatlar tahlil etilgan. Yozuvchining so‘z yasovchi qo‘shimchalardan so‘z yasashda qay darajada salmoqli foydalanilganligiga tahliliy munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: affiks, qo‘shimcha, yasovchi, asos, fe‘l, ot, sifat, gap.

WORD-FORMATING COMPLETIONS IN WORKS OF ART

Abstract: This article analyzes the characteristics of the literary word in the works of Otkir Gashimov “Between Two Doors” and “Sevgi Kissalari” by the people’s writer of Uzbekistan. The analytical attitude is expressed in the extent to which the writer uses word-forming adverbs in word formation.

Key words: affix, extra, derivative, base, verb, noun, adjective, sentence.

СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ДОПОЛНЕНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ
ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация: В данной статье анализируются характеристики художественного слова в произведениях Откира Гашимова «Между двумя дверями» и «Севги киссалари» народного писателя Узбекистана. Аналитический настрой выражается в том, насколько писатель использует словообразовательные наречия в словообразовании.

Ключевые слова: прикреплять, добавление, создатель, основа, глагол, существительное, прилагательное, вымышленное слово.

Har bir so‘zning yaratilishi yana bir boshqa so‘zga borib taqaladi. Bir so‘zdan boshqa juda ko‘p so‘zlar yasalishi mumkin. So‘zlarni yasashda bizga qo‘shimchalar yaqindan yordam beradi. Bunday yasama so‘zlarni badiiy asarlarda ham uchratish mumkin. Shu ma’noda O‘tkir Hoshimov asarlarida ham turli qo‘shimchalar bilan yasalgan so‘zlar juda ko‘p uchraydi. So‘zlarning yasalishi, unga bog‘liq bo‘lgan hodisalar tilshunoslikning so‘z yasalishi sohasida o‘rganiladi.

“Hozirgi so‘z yasalishida yasama so‘z komponentlari o‘rtasidagi munosabat jonli bo‘ladi, uning ma’nosini komponentlarining ma’no munosabati bilan asoslash mumkin.

Tarixiy yasalishda yasama so‘zning ma’nosi va shu ma’noning ifodalanish usulini yuqoridagidek asoslab bo‘lmaydi. Bu ma’no maxsus tekshirishlar, tarixiy kuzatishlar orqali aniqlanadi.” [1,167] Masalan, “Surma aralash ko‘z yoshidan qiyiqcha bir zumda qop-qora

bo'lib ketdi." [2, 107] Bu yerda qiyiq so'ziga -cha so'z yasovchi qo'chimchasi qo'shilib, qiyiqcha so'zi yasalgan: qiyiqcha kashta tikib bezatiladigan belbog' turi hisoblanadi.

So'z yasalishida kamida ikkita qism qatnashadi. Birinchisi mustaqil ma'noni anglatuvchi – asos, ikkinchisi unga yangi ma'no qo'shuvchi qo'shimcha – yasovchi. Asos va yasovchi qo'shimchani o'zaro munosabatidan paydo bo'lgan birlik yasama, ya'ni yasama so'z deyiladi. "O'sha suvga tushgan kuni hasharchilarga ovqat qilinadigan kattakon temir o'choq yonida g'o'zapoya alangasida paytavasini quritdi" [3, 327]. Bu gapda narsa oti, ya'ni hashar so'zi orqali shaxs oti hasharchi so'zi yasalganligini ko'rish mumkin. Namunada yasovchi ham, yasama ham sodda so'z hisoblanadi.

"Alimardonning lablarida quvnoq tabassum o'ynadi" [3,168]. Ushbu gapda quvnoq so'zi quvna fe'lga q affiksi qo'shilishi orqali yasalyapti. Qo'shimcha ta'sirida so'z oxiridagi [a] tovushi [o] tovushiga almashgan. Quvna+q – quvnoq. Yasovchi so'z fe'l, yasalgan so'z esa sifat so'z turkumiga oid.

So'z yasalishining bir necha usullari bor. 1. Semantik usul; 2. Fonetik usul; 3. Sintaktik-leksik usul; 4. Affiksasiya usuli; 5. Kompozitsiya usuli.

So'zga qo'shimcha qo'shish orqali yasash usuli affiksasiya usuli deyiladi. Hozirgi kunda bu so'z yasashning eng ko'p qo'llaniladigan usuli hisoblanadi. Ba'zi qo'shimchalar bir ma'nodagi, ba'zilari esa ko'p ma'nodagi so'zlarni yasaydi. "Anvar mashinka xonasidan chiqdi-yu, yorug' yo'lakdagi guldor poyandozning bir chekkasidan boshini quyi solganча yurib ketdi" [2,175]. Bunda -dor qo'shimchasi bir necha xil ma'nodagi so'zlar yasaydi.

"So'z yasovchi affikslar sodda yoki qo'shma bo'ladi. Sodda affiks birgina affiksdan iborat bo'ladi." [1, 172]. "Bugun Sharifa navbatchi-ku, ma'lim, - dedi goh muallimga, goh Toshpo'latga qarab" [3, 339]. "U Alimardonning ko'zlariga o'ychan tikilib, yana qaytardi: - Faqat sizni deb kelmaydi" [3, 213]. "Qo'shma affikslar ikki yoki undan ortiq affiksning o'zaro birikib, bir affiks holiga kelishidan hosil bo'ladi" [1, 172]. "Baribir Zuhra kelin rost aytyapti. Bular noshukurchilik qilmasa bo'ladi" [2, 111]. "Sovib qolgan samovarga tarasha tashlab qaynatgunimcha ancha vaqt o'tdi" [2, 113]. "Doim shunaqa maynavozchilik qiladi" [2, 37]

Hozirgi kunda unumli affikslar juda ko'p so'zlar yasaydi. Yangi so'zlar yasashda ayniqsa, ot yasovchi -chi, sifat yasovchi -li, fe'l yasovchi -la affikslari faol ishtirok etadi. "Alimardon qadim zamonlardan buyon xalq tilidan tushmay kelayotgan bu satrlarda o'zgacha bir joziba, yashirin, iboli tuyg'ular borligini darhol payqab olgan, o'zi bastalayotgan kuyda mana shu pokiza tuyg'ular butun go'zalligi bilan yarq etib ko'rinishini xohlar, yurak-yurakdan to'lqinlanib aytardi." Bu gapda iboli so'zi ibo so'ziga -li sifat qo'shimchasi qo'shish orqali sifat so'z turkumiga oid so'z yasalyapti. yasalyapti. "Ko'zimni ochsam, hamon aravada, dadamga yonboshlab o'tiribman" [2,41]. Namunadagi gapda esa yonboshlab so'zi yonboshla fe'lini tashkil qiladi va ravishdosh vazifasida kelgan. Yonbosh so'ziga -la fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shish orqali yonboshla fe'li yasalgan, unga -b ravishdosh qo'shimchasi qo'shilgan. "– Robiya, – dedim yig'lagudek iljayib, - sovchi keldi!" [2, 37]. Sovchi so'zi Qadimgi turkiy tilda qam shunday ma'noni anglatgan bu so'z "xabar", "nutq" ma'nosini anglatgan "sav" otidan olingan va -chi ot yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan.

Kam unumdagi soʻzlar unumli soʻzlarga nisbatan kamroq miqdorda soʻzlar yasaydi. Ular bugungi kunda yangi soʻzlar yasashda ham ishtirok etadi. "Muqaddam koʻpdan buyon – bir vaqtlar oʻquvchilik paytida sinfdoshlari bilan sayohatga chiqqanidan beri togʻni koʻrmagan, shuning uchunmi, bu yerning rang-barang manzarasi unga quvonch baxsh etardi" [3, 217]. Bu yerda sinfdosh soʻzining yasashida qatnashgan -dosh qoʻshimchasi ana shunday kam unumli affikslardan biri hisoblanadi va sinf oʻrin-joy otidan shaxs oti yasalgan.

Unumsiz affikslar esa juda kam miqdorda qoʻllaniladi. Hozirgi kunda bunda ular yordamida yangi soʻz yaratilmaydi. Masalan ot yasovchi -gar, -kash, sifat yasovchi -agʻon, -mon, feʼl yasovchi -(a)r affikslari shular jumlasidandir. "Kungurador shiftlar ostida Mutal Qodirovning mayin, dilkash ovozi ohista parvoz etar, odamlar uni hayajondan entikib tinglashardi" [3,235]. Oʻtkir Hoshimovning "Sevgi qissalari" asaridan olingan ushbu gapda ham dilkash soʻzi unumsiz affikslar yordamida yasalgan.

"Oʻzbek tilida, soʻz yasovchi affikslardan tashqari, oʻz xususiyati bilan affikslarga juda yaqin turadigan -xona, -noma kabi soʻz-affikslar ham bor. Bular affiksoidlar deb ham yuritiladi." [1, 173] "Qahvaxonaning ichi shovqin-suron boʻlib ketdi" [3,255] Ushbu parchada qahvaxona, yaʼni joy nomi shu usul bilan yasalgan. "Oxirgi gapi hukmnomadek eshitildi-yu, yulqinib quchogʻidan chiqdim" [2, 114] Bu gapda hukmnoma soʻzi ham affiksoidlar yordamida yasalgan. Namunadagi soʻzga -dek qoʻshimchasi qoʻshilishi orqali oʻxshatish maʼnosi ham hosil qilingan.

Bir soʻz bilan aytganda tilimizda soʻz yasovchi qoʻshimchalar juda koʻp. Ularning har biri bizga turli xildagi soʻz turkumlari yasashda yordam beradi. Oʻtkir Hoshimov asarlaridagi baʼzi soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali yasalgan soʻzlardan badiiy asarning tarkibida faol qoʻllanilishi anglashiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Xojiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (1-qism). – Toshkent: "Oʻqituvchi". 1980. 446 b. B: 167, 168, 172, 173
2. Oʻ. Hoshimov. Ikki eshik orasi \roman\ "Abadiy barhayot asarlar" turkumi. T.: "Ilm-ziyo-zakovat", 2019. – 528 b. B: 37, 41, 107, 111, 113, 114, 175.
3. Oʻ. Hoshimov. Sevgi qissalari \hikoyalar va qissalar\ Toshkent: Oʻzbekiston, 2013. – 480 b. B: 168, 213, 255, 327.